

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сейтов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIJIY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАЧНА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ҲИЙНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

Sulaymanova Dildora Nazarovna
SamDU assistenti, PhD

Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna
SamDU tadqiqotchisi

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN
O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODEL**

Annotatsiya. Ushbu maqolada model va modellashtirish asosida o'quv jarayonini qanday tashkil etish, uning qaysi komponentlardan iborat bo'lishi, o'zaro aloqadorligining qay tarzda kechishi, natijalarni avvaldan qanaqa imitatsiya qilish mumkinligi kabi savollarga javob olish mumkinligi nuqtayi nazaridan qaraladi. Belgilangan vazifalar yechimiga erishish uchun to'rtta, ya'ni maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik komponentlardan tarkib topgan bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli loyihalashtiriladi hamda tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqlikda uyg'un bo'lishi dalillanadi.

Kalit so'zlar: model, modellashtirish, loyihaga soslangan o'qitish, kreativ tafakkur, o'quv jarayoni, maqsad, vazifa.

Sulaymanova Dildora Nazarovna
SamSU assistant, Ph.D

Giyasova Shakhnoza Abdurafikovna
Researcher of SamSU

**MODEL OF DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF FUTURE TEACHERS THROUGH
PROJECT-BASED LEARNING**

Abstract. This article discusses how to organize the educational process based on modeling and simulation, what its components are, how they are interconnected and how to simulate the results in advance. To achieve the solution of the set tasks, a model has been developed for the development of creative thinking of future teachers through project-based learning, consisting of four components: goal setting, conceptual, design and creative process, diagnostic components. its components are designed and proven to be harmonious in their interdependence.

Key words: model, modeling, project-based learning, creative thinking, educational process, goal, task.

Сулайманова Дилдора Назаровна
Ассистент СамГУ, к.э.н.

Гиясова Шахноза Абдурафиковна
научный сотрудник СамГУ

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ
ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ**

Аннотация. В данной статье рассматривается, как организовать учебный процесс на основе модели и моделирования, каковы его составляющие, как они взаимосвязаны и как заранее имитировать результаты. Для достижения решения поставленных задач разработана модель развития творческого мышления будущих учителей средствами проектного обучения, состоящая из четырех компонентов: целеполагания, концептуального, проектно-творческого процесса, диагностических компонентов. спроектировано и доказано, что его компоненты гармоничны в своей взаимозависимости.

Ключевые слова: модель, моделирование, проектное обучение, творческое мышление, образовательный процесс, цель, задача.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N83>

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta'lim amaliyotida belgilangan maqsadlarga erishishning samarali usullaridan biri sifatida modellashtirishdan keng foydalanilmoqda. Chunki modellashtirishning voqea va hodisalarni avvaldan loyihalash, abstraksiyalash, real holatlarni tajribada sinab ko'rish uchun qulay holatga keltirish, imitatsiya qilish imkoniyatini beradi. Natijada, tadqiqot ishida nazarda tutilgan holatlarni tajribada o'rganish hamda natijalarni amaliyotda qo'llash ishonchliligiga erishish mumkin bo'ladi. Modellashtirishning obyekti pedagogik jarayonni, ya'ni o'qitish maqsadi, mazmuni, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari, faoliyat xususiyatlari, yondashuvlarni ifodalashiga ham e'tibor qaratish zarurligini bildiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda modellashtirish alohida ahamiyat kasb etib, ularning yangi bilimlarni yaratish, g'oyalar ishlab chiqish, muammolarni tushunish, yechimini topish, refleksiv fikrlash qobiliyatlari mazkur jarayonlarning modellarini mustaqil holatda yarata olish layoqatlariga hamohang ravishda takomillashib boradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi o'zgarishlarga moslashuvchanligi va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda ham jarayonning modelini tuzish va harakatlanish ijobiy natijalarga olib keladiki, bu mavqe pedagogning funksional savodxonligiga ishora beradi.

Yuqoridagi fikrlarimiz dalili sifatida, mazkur sohada tadqiqotlar olib borgan olimlar I.B.Bichevaning ilgari surgan o'quv jarayoniga oid turli muammolarning nostandart, egiluvchan yechimlarini topishda ijodiylikka yo'naltirilgan metod va texnologiyalarni maqsadli qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning kreativ imkoniyatlarining rivojlanganlik darajasini ko'tarish haqidagi xulosalarini keltirish mumkin [7]. Shu zayldagi fikrlar va yondashuvlar boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham uchraydi.

Modellashtirish pedagogik tadqiqot metodi sifatida birmuncha keng o'rganilgan va muayyan talqinlarga ega. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Jumladan, T.Delcheva "o'rganilayotgan obyektning tizimli tuzish, uni maqsadga muvofiq o'zgartirish ketma-ketligi", L.Fridman "biror bir tadqiqot jarayonida belgilangan biror bir obyekt yoki tizimning boshqa obyekt haqida xulosa qilish imkoni" [5; 31-b.], N.V.Bordovskaya "pedagogik obyektning turli unsurlariga mosligi haqidagi g'oyalarni rivojlantirishda foydalaniladigan pedagogik tadqiqot usuli" [6; 198-b.], A.A.Andreyev, V.I.Soldatkin "ilmiy tadqiqotning nazariy usullaridan biri, o'z turi bo'yicha soddalashtirish mantig'i" [1; 18-b.], "biror maqsad uchun bajarilgan yoki (bajariladigan) hodisaning mavjudligini soddalashtirish, voqelikning tavsifi sifatida qo'llanilishi" [1; 18-b.] shaklida o'zlarining mualliflik yondashuvlarini shakllantirganlar.

Shuningdek, modellashtirishning xususiyatlariga to'xtalgan I.Podlasiy uning quyidagi muammolarni muvaffaqiyatli yechimiga olib borishda samarali ekanligini ta'kidlaydi [11; 67-b.]:

- o'quv materialini maqbullashtirish;
- o'quv jarayonini rejalashtirishni yaxshilash;
- bilish faoliyatini boshqarish;
- o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish;
- ta'lim jarayonini tashxislash, rejalashtirish, loyihalashtirish.

Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish masalalari bilan shug'ullangan olim A.Hayitov ham o'z tadqiqotlarida modellashtirishning imkoniyatlarini keng yoritib, uni "izohli-ko'rgazmali ta'lim" sifatida baholaydi hamda ta'lim samaradorligi darsni qanday model asosida tashkil etish, uning qonuniyatlariga og'ishmay amal qilishga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini dalillaydi hamda qiziqarli tavsiyalarni shakllantiradi [2; 125-b.].

Pedagogik jarayonlarni modellashtirishda model muhim tarkibiy qism vazifasini bajaradi. Pedagogika fanlari doktori M.Vaxobov model haqidagi quyidagi fikrlarni bildiradi: model – bu real obyektни almashtirish mumkin bo'lgan, tadqiqot va tajriba o'tkazish uchun qulay bo'lgan imitatsion obyektidir. Modellashtirish inson faoliyatining turli sohalarda keng ishlatilib, asosan olingan ma'lumotlar bo'yicha samarador yechimlar qabul qilish jarayonida, loyihalash va boshqarish sohaslarida qo'llaniladi. ... Model – tadqiq qilinayotgan obyekt yoki hodisalarga o'xshash, sxema, shakl, konstruksiya, belgili formula, axborot tizimi sifatida yaratilgan ishlanmasi bo'lib, modellashtirish asosida o'xshashlik nazariyasi yotadi [5; 27–32-b.].

Model tushunchasi boshqa ko'plab olimlar tomonidan ham tadqiq qilingan bo'lib ularda turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, V.A.Shofft "model boshqa obyektlarning faqat almashtiruvchisi bo'lmasdan, balki tadqiq etilayotgan obyekt unsurlari orasida bog'liqlik mavjudligini, o'ziga xos bo'lgan muayyan tuzilmani tashkil etishini" [5; 31-b.], S.P.Mikitshenko "o'quv jarayonini amalga oshirishda pedagogning harakatlari rejasi yoki sxemasini belgilash ...muammolarni hal qilish jarayonida o'quvchilarning produktiv faoliyati" [10; 82-b.], Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlar "ta'lim modelida tarkibiy qismlar muayyan jarayonlarning aksi sifatida namoyon bo'lishi kerakligi, ta'lim faoliyati elementlarni qandaydir tartibga, tizimga, uyushishga bo'ysundirish usuli" [4] T.Azlarov "o'qitish tizimining maqsad, mazmun, usullar, vositalar va tashkil etish shakllaridan iborat uzviy beshta qismining birligi" [1; 19-b.] ekanligini ta'kidlaganlar hamda o'z qarashlarini nazariyalar, amaliy ishlanmalar bilan dalillaganlar.

Pedagog-olim A.Ibragimov model va modellashtirish haqida ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlarga tayanib quyidagi fikrlarni keltiradi: "Ta'lim loyihasi (ta'lim faoliyati metodologiyasi)" nomli asarda A.M.Novikov loyihalananayotgan model belgilangan talablarga javob berishi bilan birgalikda ingerentligi, soddaligi va adekvatligi bilan ajralib turishi lozimligini uqtiradi. Demak, modelga qo'yilgan talablarning bajarilmasligi kutilgan natijalarga erishilmasligiga, amaliyotga joriy qilishda muammolar tug'ilishiga, ya'ni sifati va funksionalligining tushib ketishiga sabab bo'ladi. Modelning ingerentligi (lot. Inhaerentis – yopishgan, ildiz otgan; ing. inherent – nimaningdir ajralmas qismi), ya'ni mavjud muhitga muvofiqligi joriy tizim xususiyatlari, davlat va jamiyatning ta'lim sohasiga qo'yayotgan talablari hamda buyurtmasiga mosligi nuqtayi nazaridan qaraladi. Shunga muvofiq tadqiqotimizda loyihalananayotgan modelni malaka oshirish ta'limi maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirishga, XTXMO tizimining tarkibiy qismi sifatida kasbiy mahoratni rivojlantirishning barcha turlari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali modellashtirishga e'tibor qaratdik. Model komponentlari, ularning tarkibiy elementlari u bilan ishlash hamda amalga oshirish vositasi

sifatida qo'llash soddaligini ta'minlovchi o'zaro bog'liq, alohida qismlardan iborat, butun va ma'lum ketma-ketlikdagi tizimni ifodalaydi. Modelning adekvatligi esa belgilangan konseptual komponent asosida XTXMOga ko'p vektorli yondashuvning imkoniyatlaridan foydalanib malaka oshirish uzluksizligini ta'minlash va pedagoglar kasbiy rivojlanishiga doir maqsadlariga erishishni bildiradi [3; 66-67-b.].

Model o'quv jarayonini kreativ loyihalashda muhim ahamiyat kasb etib o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bir qator funksiyalarni bajaradi. Quyidagi jadvalda ularning ayrimlarini shu sohada izlanishlar olib borgan olimlar fikriga tayangan holda keltiramiz (1-jadval).

1-jadval.

O'quv jarayonini kreativ loyihalashda model va modellashtirishning o'ziga xos funksiyalari

Voronsov A.B. [8]	modelning o'rganilayotgan obyektни narsa-buyum, chizma va belgilar shaklida ifodalash orqali ular haqida tasavvur hosil qilish; modellar va munosabatlarni qayta yaratish orqali ularni tabiiy ko'rinishda o'rganish uchun sharoit yaratish; xususiy masalalar tizimini yechish modellarini amalga oshirish orqali o'quv predmetiga xos harakatlarni bajarish.
Murtazina N.A. [9]	1. Namoyish qilish funksiyasi. O'quvchi topshiriq matni bilan tanishish jarayonida model yordamida olgan ma'lumotlarini namoyish qiladi. Buning natijasida o'quvchi obyektning ichki tarkibi yordamida tashqi tarkibini aniqlaydi, bunda o'quvchilarga matndagi so'zlar ko'maklashadi. Shuningdek, masalalar shartini tadqiqot hamda o'rganish obyekti sifatida namoyish qilishga erishadilar. 2. Tushuntirish funksiyasi. O'quvchi o'zining ilgari o'rgangan tushunchalar haqidagi tasavvurlarini va ular orasidagi aloqadorlikni anglashga harakat qiladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining bir tipdagi topshiriqlarni yechishga o'rganib qolishlarini bartaraf etib, turli-tuman masalalarni yechishga oid tajribalarini kengaytirishga xizmat qiladi. 3. Bashorat qilish funksiyasi. O'quvchi masalalar haqidagi o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtiradi va baholaydi, masalaning shartidan to'plash va qayta shakllantirish vositasi sifatida foydalanadi. Bu turlicha tarkibdagi modellarga tayangan holda izlanish va maqbul yechimlarni topish uchun imkoniyat yaratadi. 4. Evristik funksiya. Model ustidagi faol fikriy amaliy faoliyat natijasida o'quvchilar topshiriqlarni bajarish uchun ilgari yetarli bo'lmagan usullar va ma'lumotlarni izlab topadilar. Buning natijasida o'quvchilar modellashtirishning yangi, betakror usullari va yo'llarini izlab topadilar. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida shu turdagi boshqa topshiriqlarni bajarish imkoniyati tug'iladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida topshiriqlarning dastlabki shartiga asoslangan holda uni bajarishga oid umumiy ko'nikmalar shakllanadi.
Fridman L.M. [13]	ilmiy modellarni o'rganish; modellar mavjud bo'lmagan yoki mavjud modellari o'quv jarayoni uchun noqulay fanlarga xos modellar va tushunchalarni qurish; harakatlarning asosi va yo'nalishlarini ifodalovchi modellar doirasida harakat formulalari va algoritmlarni yaratish; bilimlarni umumlashtirishga xizmat qiladigan modellardan foydalanish; taqdim etilayotgan ma'lumotlarni tatqiq etuvchi tushunchalarni o'rganishga oid ishlarni rejalashtirish; mantiqiy fikrlash hamda esda saqlab qolishni osonlashtiradigan o'quv materialini modellashtirish.

Tereshin N.A. [12]	<p>1. Bilish funksiyasi. Bilish funksiyasining maqsadi o'rganilayotgan obyektни bilish timsolini ajratishni talab qiladi. Bunday shakllanish muntazam tarzda oddiydan murakkabga o'tish jarayonida amalga oshadi.</p> <p>2. O'quvchilar faoliyatini boshqarish funksiyasi. Modellashtirish predmetli xarakterga ega bo'lib, shunga ko'ra yo'naltiruvchi, nazorat qiluvchi, kommunikativ harakatlarni qamrab oladi. Yo'naltiruvchi harakat tarkibiga o'rganilayotgan vaziyatga mos keladigan chizmalarni yaratish, shuningdek, ularga qo'shimcha qismlarni kiritish kabilar kiradi. Nazorat qiluvchi harakatlar darslikka kiritilgan chizma va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Kommunikativ harakatlar o'quvchilar erishgan natijalarni aniqlash va ularni tadqiq qilishdan iborat. O'quvchilar ushbu harakatlarni bajarish jarayonida model ifodalagan jarayon yoki hodisalarni atrofdegilar, sinfdoshlari yoki o'z-o'ziga tushuntirish, izohlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.</p> <p>3. Interpretatsiyalash (sharhlash, izohlash) funksiyasi. Ayni bir obyektни turli modellar yordamida ifodalashni anglatadi. Ushbu modellardan har birini o'rganishga uning interpretatsiyasi sifatida qaraladi. Alohida ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarga turli nuqtayi nazardan yondoshgan holda ularning interpretatsiyasini berish lozim. Chunki bunday interpretatsiya obyektни turli tomondan yondoshgan holda bilish imkonini beradi</p>
--------------------	---

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosaga kelish mumkinki, model va modellashtirish asosida o'quv jarayonini qanday tashkil etish, uning qaysi komponentlardan iborat bo'lishi, o'zaro aloqadorligining qay tarzda kechishi, natijalarni avvaldan qanaqa imitatsiya qilish mumkinligi kabi savollarga javob olish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot ishimiz predmeti va belgilangan vazifalaridan kelib chiqqan holda ishimizda pedagogik modellashtirishning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirishga doir ilgari surilgan g'oyalarimizni sinovdan o'tkazishdan iborat qilib belgilandi.

Modellashtirish maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar shakllantirildi:

- aniqlangan nazariy yondashuvlarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarning loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- bo'lajak o'qituvchilarni loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirish mazmunini shakllantirish;
- ishlab chiqilgan model asosida tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar yechimiga erishish uchun to'rtta, ya'ni maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik komponentlardan tarkib topgan bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli loyihalashtirildi (1-rasm).

Maqsadni belgilash komponenti modelni amaliyotga kiritish maqsadi va komponentlar uyg'unligini ifodalaydi.

Modelning maqsadi quyidagicha belgilandi: loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish.

Maqsad: loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish

Konseptual komponent

Metodologik yondashuvlar

- tizimli
- shaxsga yo‘naltirilgan
- kompetensiyaviy
- kommunikativ
- faoliyatli

Ilmiy tamoyillar

- uzluksizlik
- variativlik
- ijodiylik
- hamkorlik
- o‘zaro ta’sir
- majmuaviylik
- qadriyatlik
- integrativlik
- motivlilik

Loyihalash va kreativ

Vazifalar

- loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasi borasida talabalarning mavjud bilimlari, uni amaliyotga kiritishga doir munosabatini aniqlash, ushbu texnologiyani kasbiy faoliyatida faol qo‘llash darajasini oshirish;
- bo‘lajak o‘qituvchilar bilan kreativ tafakkurni rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy-metodik jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlillash;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv mazmunini ishlab chiqish

Pedagogik shart-sharoitlar

- bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o‘qitishni qo‘llashga tayyorligi;
- tafakkurga yo‘naltirilgan kreativ va o‘zaro ta’sir muhitining yaratilishi;
- talabalar shaxsini kasbiy shakllanishining subyekti sifatida qaralishi

Harakatlar algoritmi

maqsad + vazifa + yaratuvchanlik + vosita + loyiha + loyihalashtirish + boshqaruv + mazmun + o‘zlashtirish + loyiha davomida o‘qish + jarayonda o‘rganish + metodik shakllar + vosita + natija uzviyligi + g‘oyalar generatsiyasi

Kreativ tafakkurning rivojlanganlik mezonlari

- ijodkorlik faoliyatiga qadriyat sifatidagi munosabati;
- kreativ faoliyatga qiziquvchanlik;
- anglanganlik va ishlanganlik;
- egiluvchanlik va o‘ziga xoslik;
- aniqlik va assotsiativlik

Diagnostik komponent

Kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajalari

- yuqori
- o‘rta
- past

1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli

Konseptual komponent modelning ilmiy-metodologik asosini ifodalab, loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga qadriyatli munosabatni shakllantirish, uzluksiz ravishda pedagogik mahoratini oshirib borishga bo'lgan motivlarini yanada mustahkamlashga urg'u beradi.

Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga doir jarayonlarni tashkillashtirishda mustahkam metodologik, ilmiy-nazariy asos mavjudligi zaruriy shartdir. Shu nuqtai nazardan, jarayonda quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanib ish ko'rish o'rinli bo'ladi, deb hisobladik:

- ✓ tizimli;
- ✓ shaxsga yo'naltirilgan;
- ✓ kompetensiyaviy;
- ✓ kommunikativ;
- ✓ faoliyatli.

Yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar doirasida tadqiqotimiz asosini quyidagi ilmiy tamoyillar tashkil qildi:

- ✓ uzluksizlik;
- ✓ variativlik;
- ✓ ijodiylik;
- ✓ hamkorlik;
- ✓ o'zaro ta'sir;
- ✓ majmuaviylik;
- ✓ qadriyatlilik;
- ✓ integrativlik;
- ✓ motivlilik.

Loyihalash va kreativ jarayon komponenti bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun ijodiylikni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, uning vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari hamda natijaga yo'naltirilgan harakatlar algoritmini nazarda tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishga doir jarayondan kutilgan maqsad quyidagi vazifalarning ijobiy yechim topishiga bog'liq bo'ladi:

- ✓ loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi borasida talabalarning mavjud bilimlari, uni amaliyotga kiritishga doir munosabatini aniqlash, ushbu texnologiyani kasbiy faoliyatida faol qo'llash darajasini oshirish;
- ✓ bo'lajak o'qituvchilar bilan kreativ tafakkurni rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy-metodik jarayonlardagi o'zgarishlarni tahlillash;
- ✓ bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mazmunini ishlab chiqish.

Ixtiyoriy jarayon muayyan pedagogik shart-sharoitlarni hozirlash va to'g'ri amalga oshirish orqaligina samarali ishlashi mumkin bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimiz davomida bo'lajak o'qituvchilarni loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni

rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini hosil qiladi, deb hisobladik:

- ✓ bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llashga tayyorligi;
- ✓ tafakkurga yo'naltirilgan kreativ va o'zaro ta'sir muhitining yaratilishi;
- ✓ talabalar shaxsini kasbiy shakllanishining subyekti sifatida qaralishi.

Tadqiqot ishlarini amalga oshirish faoliyatli yondashuvni taqozo qilar ekan, unda muayyan elementlardan tarkib topgan harakatlar algoritmini yaratmasdan turib jarayonni to'g'ri loyihalab bo'lmaydi. Bu talab tajriba-sinov jarayonida quyidagi tartibda harakatlanishning mantiqiy zanjir hosil qilishini ko'rsatdi:

- ✓ maqsad;
- ✓ vazifa;
- ✓ yaratuvchanlik;
- ✓ vosita;
- ✓ loyiha;
- ✓ loyihalashtirish;
- ✓ boshqaruv;
- ✓ mazmun;
- ✓ o'zlashtirish;
- ✓ loyiha davomida o'qish;
- ✓ jarayonda o'rganish;
- ✓ metodik shakllar;
- ✓ vosita;
- ✓ natija uzviyligi;
- ✓ g'oyalar generatsiyasi.

Diagnostik komponent tadqiqot ishida ilgari surilgan g'oyalar va nazariy holatlarning ishlab chiqilgan bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modeli asosida amalga oshirilgan ishlar vositasida dalillanishi, natijadorligi va erishilgan holatlarning baholanishini ifodalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajasi quyidagi mezonlarga tayanib aniqlandi:

- ijodkorlik faoliyatiga qadriyat sifatidagi munosabati;
- kreativ faoliyatga qiziquvchanlik;
- anglanganlik va ishlanganlik;
- egiluvchanlik va o'ziga xoslik;
- aniqlik va assotsiativlik.

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajasi quyidagicha tabaqalashtirildi: yuqori; o'rta; past.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishning ishlab chiqilgan modeli jarayonning intellektuallik, kreativlik, integrativlik, emotsionallik mezonlariga bog'liqlikda uyg'unligini ta'minlash hamda samaradorlikka erishish uchun ijodiy muhit yaratuvchi maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik komponentlar majmuini ifodalaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Askarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: ped. fan. (PhD)... diss. – Toshkent, 2017. – 250 b.
2. Hayitov A.G'. Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi hamda amaliyoti. Ped. fan. dok. ... dis. – T.: 2006. – 245 b.
3. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped. fan. (PhD)... diss. – Samarqand, 2018. – 215 b.
4. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol": 2006. – 592 bet.
5. Vaxobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati va monitoringini modellashtirish // Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016. – 200 b.
6. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического исследования: монография. – М.: Изд-во «КноРус», 2016. – 512 с.
7. Бичева И.Б. Развитие творческого мышления обучающихся как условие непрерывного познания и профессионального развития // Современные научные исследования и инновации. – 2016. – № 6.
8. Воронцов А.Б. Учебная деятельность введение в систему Эльконина [Электронный ресурс]. – URL: <https://sites.google.com/site/kniznaapolkavmk/воронцов-а-б-учебная-деятельность-введение-в-систему-эльконина>
9. Муртазина Н.А. Схематические модели как средство обучения младших школьников решению задач различными способами: дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2001. – 168 с.
10. Микитченко С.П. Организация проблемных задач в процессе обучения иностранному языку (на материале говорения): дис. ... канд. пед. наук. – Нижневартовск, 2003. – 173 с. ; 82-b.
11. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. – Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. – 576 с.
12. Пушкарева Т.П. Математическое моделирование как необходимый компонент математической подготовки [Электронный ресурс]. – URL: <https://s.science-education.ru/pdf/2014/5/743.pdf>
13. Фридман Л.М. Методика обучения решению математических задач // Математика в школе. – Москва, 2008. – № 5. – С. 14-21.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).